

16-01/107
28.11.2024 y.



“TASDIQLAYMAN”

Viloyat hokimi

E. Turdimov

2024-yil 27 noyabr

Viloyat hokimligida o‘tkazilgan apparat yig‘ilishi
BAYONI

2024-yil 26-noyabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi:

E. Turdimov – viloyat hokimi

Ishtirok etganlar:

Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari mas’ul xodimlari hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
(ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida” PQ-7-son qarori ijrosini joylarda ta‘minlash ahvoli to‘g‘risida.

2. Boshqa masalalar.

1-masala

(Turdimov, Abilov, Xudayberdiyev, Shukurov, Xamrayev, Rahmatullayev, shahar va tuman hokimlari, Turdimov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig‘ilish qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”

PQ-7-son qarorida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlashda sustkashlikka yo'l qo'yayotgan quyidagilarga:

viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (**B.Raxmatullayev**) Jomboy (Q.Sobirov), Urgut (B.Jabborov), Kattaqo'rg'on (J.Nasriddinov), Payariq (I.Jabborov), Qo'shrabot (D.Shakarboyev), Pastdag'om (Sh.Raxmonov) tumanlar hokimlari ogohlantirilishini;

Oqdaryo tumani hokimi (**Sh.Qudratov**) tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari O.Shodmonovni;

Pastdarg'om tumani hokimi (**Sh.Raxmonov**) tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari K.Allamurodovni qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda "**hayfsan**" intizomiy jazo chorasi qo'llanilishini ta'minlasin.

2. Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (**T.Maxmudov**) tuman va shahar sektor rahbarlari bilan birgalikda bandlik dasturida belgilangan har bir maqsadli ko'rsatkichlarni to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida joriy yil noyabr oyi yakuniga qadar 7,9 ming nafar aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rilishini ta'minlasin.

3. Viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (**T.Maxmudov**) "Yangiish.mehnat.uz" platformasiga kiritilgan ma'lumotlar Davlat Soliq qo'mitasi bazasida o'z tasdig'ini topishi bo'yicha barcha zaruriy choralarni ko'rsin.

4. Viloyat hokimining o'rinbosarlari (**F.Abilov, O.Xamrayev, Sh.Xudayberdiyev, A.Shukurov**) yil yakuni bilan bandlik dasturida belgilangan har bir maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilsin.

2. Boshqa masalalar

(Turdimov, Xudayberdiyev, Tuxtayev, Shukurov, Rahmatullayev, Ibragimov, shahar va tuman hokimlari, Turdimov)

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali rahbari o'rinbosari (**A.Ibragimov**) Samarqand shahri hududidagi markaziy ko'chalarda hamda odamlar gavjum hududlardagi piyodalar va velosiped yo'laklaridagi suniy ravishda barpo etilgan to'siqlarni bartaraf etilmayotgan mas'ullar to'g'risida har hafta viloyat hokimiga axborot kiritib borilishini ta'minlasin.

6. Samarqand tumanida olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari talab darajasida tashkillashtirilmayotganligi, xalqaro ahamiyatga ega M-39 yo'l yoqasidagi xizmat ko'rsatish obyektlarida ishlar to'xtab qolganligi tuman sektor rahbarlariga ko'rsatib o'tilsin.

7. Tuman va shahar sektor rahbarlari ichimlik suvi ta'minoti va oqova xizmatidan aholi hamda yuridik shaxslardan debitor qarzdorliklarining undirish

bo'yicha ishlarni jadallashtirsin.

8. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (**B.Rahmatullayev**) Payariq, Urgut tumanlaridagi ichimlik suvi ta'minoti va oqova xizmatidan aholi hamda yuridik shaxslardan debitor qarzdorliklari **3 kun muddatda** to'liq undirilishi bo'yicha Payariq tumani hokimi I.Jabborovdan hamda Urgut tumani hokimi B.Jabborovdan kafolat xati olinishini ta'minlasin.

9. Toyloq (**B.Bobonazarov**), Oqdaryo (**Sh.Qudratov**), Jomboy (**Q.Sobirov**), Samarqand (**S.Usmonov**), Paxtachi (**M.Xamdamov**), Payariq (**I.Jabborov**) tumani hokimlari aholi xonadonlariga quyosh panellarni o'rnatish rejasini viloyat ko'rsatkichida past ekanligi ko'rsatib o'tilsin hamda qisqa muddatda belgilab berilgan reja ijrosini ta'minlash chorasini ko'rsin.

10. Viloyat tashkilot va korxonalar rahbarlari, tuman/shahar sektor rahbarlari "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'ziga biriktirilgan joylarda ekilgan ko'chatlar bo'yicha hisobotlarini xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyatiga asoslantiruvchi hujjatlari bilan topshirish chorasini ko'rsin.

11. Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (**S.Usmonov**) "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekishda sustkashlikka yo'l qo'yan viloyat korxonalar va tashkilot rahbarlarini hisobotini xalq deputatlari viloyat Kengashida eshutilishini ta'minlasin.

12. Viloyat hokimi o'rinbosari (**A.Shukurov**), viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (**B.Jo'rayev**) "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2023-yil hamda 2024-yil bahor oylarida tashkilotlar tomonidan ekilgan ko'chatlarni holati yuzasidan joyiga chiqqan holda o'rganish o'tkazib, natijasi bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritib borilishini ta'minlasin.

13. Viloyat prokurori o'rinbosari (**A.Zakirov**) **Kattaqo'rg'on tumani** Nayman mahallasi 500 tup, Yodgorxo'ja mahallasi tomonidan 270 tup, Ixtisoslashtirilgan maktab 138 tup, 15-maktab 70 tup, **Pastdarg'om tumani** Kamolot mahallasi 922 tup, Mikrocreditbank tuman bo'limi 1 000 tup, 32-musiqqa maktabi 80 tup, **Toyloq tumani** 45-maktab 21 tup, **Ishtixon tumani** "Sanjarbek uzumlari" fermer xo'jaligi 8 500 tup, Obodonlashtirish boshqarmasi 350 tup, tuman Yo'llardan foydalanish korxonasi 232 tup, **Bulung'ur tumani** Suv yetkazib berish korxonasi 3 000 tup, **Oqdaryo tumani** 56-maktab 33 tup, **Samarqand tumani** Fotima Qosimova MMTP 1 600 tup, **Narpay tumani** "Rasul Domla" fermer xo'jaligi 4 000 tup, **Jomboy tumani** Irrigatsiya bo'limi 5 450 tup, 16-maktab 140 tup, 35-maktab 61 tup, 9-maktab 20 tup, 22-bog'cha 35 tup, 34-bog'cha 15 tup umuman ekilmagan va oldingi mavsumlarda ekilgan ko'chatlarni platformaga kiritib, hisobotlarga qo'shib yozganlik holatlari bo'yicha tegishli mas'ullarini rasman ogohlantirish tavsiya etilsin.

14. Viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**), "Zarafshon" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi o'rinbosari (**M.Turniyazov**), Nurobod (**S.Berdiqulov**), Kattaqo'rg'on (**J.Nasriddinov**), Payariq (**I.Jabborov**), Bulung'ur (**S.Astanov**),

Paxtachi (**M.Xamdamov**), Narpay (**Sh.Buranov**), Pstdarg'om (**Sh.Raxmonov**), Ishtixon (**F.Ro'ziyev**) tuman hokimlari bilan birgalikda 2024-2025-yilda kuz-qishgi davrda Suv yetkazib berish davlat muassasalari xizmati hisobidagi ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish hamda 2024-yil davomida yetkazib berilgan suv resurslari uchun solig' yig'imlarini undirish ishlarini jadallashtirish chorasini ko'rsin.

15. Viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**) e-maktab (Kundalik.com) platformasiga yolg'on ma'lumot kiritib kelinayotganligi sababli Narpay tumani 19-maktab direktori **I.Isaqulov**ga, Payariq tumani 79-maktab direktori **G'.Darxonov**ga, Kattaqo'rg'on tumani 33-maktab direktori **R.Ro'ziyev**ga, Pstdarg'om tumani 70-maktab direktori **Z.Ergashev**larga nisbatan qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda "**hayfsan**" intizomiy jazo choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

16. Tuman va shahar sektor rahbarlari o'zlarining hududlaridagi maktab direktorlari hamda mas'ullari ishtirokida yig'ilish tashkil etib mas'ullar tomonidan e-maktab (Kundalik.com) platformasiga yolg'on ma'lumotlar kiritilgan taqdirda qonunda o'rnatilgan tartibda jinoiy javobgarlikka tortilishi yuzasidan ogohlantirish choralarini ko'rsin.

17. Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**A.Umarov**) Urgut tumani 1-sektordagi 27-maktabning 6 nafar o'quvchilari o'quv yili boshidan surunkali ravishda dars qoldirib kelganligi bu borada o'ziga biriktirilgan bo'lsada, biron-bir amaliy choralar ko'rmaganligi sababli tuman Milliy gvardiya xodimi **N.Muminqulov**ni qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda egallab turgan lavozimidan ozod etish masalasini ko'rib chiqish tavsiya etilsin.

18. O'ziga biriktirilgan yoshlar bilan amaliy ishlarni olib bormaganligi, ularning muammolarini o'z vaqtida o'rganmaganligi natijada biriktirilgan yosh tomonidan jinoyatlar sodir etilganlik holatlari yuzasidan quyidagilarga;

viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**) Samarqand shahri soliq bo'limi boshlig'i **L.Rasulov**ni qonunda o'rnatilgan tartibda rasman ogohlantirish;

viloyat Adliya boshqarmasi (**S.Sattorov**) Paxtachi tumani Davlat xizmatlari markazi direktori **A.Tuxtayev**ni qonunda hujjatlarida o'rnatilgan tartibda "**hayfsan**" intizomiy jazo choralarini qo'llash;

viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (**N.Kadirov**) Bulung'ur tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi mas'ul xodimi **E.Ergashev**ni qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda egallab turgan lavozimidan ozod etish masalasini ko'rib chiqish tavsiya etilsin.

19. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (**R.Mamatov**), viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi (**S.Boboyev**) yoshlar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida tegishli mas'ullar ishtirokida targ'ibit-tashviqot ishlarini o'z vaqtida amalga oshirmaganligi buning natijasida mahalla yoshlari o'rtasida

jinoyatchilik oshganligi sababli **Samarqand shahri** Rasadxona, Ko'ksaroy, Mustaqillik, Abu Abdullo Rudakiy, **Samarqand tumani** O'zbekkenti, Mirzo Ulug'bek, Radjabamin, **Pastdarg'om tumani** Balxiyon, Qatorterak, Gumbaz, Kamolot, **Urgut tumani** Dehqonobod, **Bulung'ur tumani** Gulzor, **Jomboy tumani** Beshbola, Zarafshon, **Kattaqo'rg'on tumani** Kadan, Qoradaryo, **Narpay tumani** Sarbozor, Chayqal va **Paxtachi tumani** Tadbirkor mahallalaridagi profilaktika inspektorlari hamda yoshlar yetakchilariga nisbatan qonunda hujjatlarida o'rnatilgan tartibda "**hayfsan**" intizomiy jazo choralari ko'rish tavsiya etilsin.

20. Tuman va shahar hokimliklari:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramini viloyatning barcha shahar va tumanlar markazlari, qishloq va ovullarda nishonlanishini;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi g'oya va asosiy tamoyillarni o'zida aks ettiruvchi ko'rgazmali vositalarni (plakat, panno, videorolik va boshqalarni) tayyorlash hamda shahar, tuman markazlari shoh ko'chalari, xiyobonlar, bayram tadbirlari o'tadigan joylarda, tashqi reklama obyektlarida, bilbordlarda, LED ekranlarda, jamoat transportida va jamoat joylarida bozor, gipermarket, savdo shoxobchalari, bekat, aeroport va aviakassalar, temiryo'l vokzallari va kassalari, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida joylashtirilishini ta'minlasin.

21. Viloyat Adliya boshqarmasi (**S.Sattorov**) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda **bir hafta muddatda** tuman va shahar markazlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlab Konstitutsiya ko'chasi, maydoni, mahallasini tashkil etish maqsadida:

Konstitutsiya ko'chasi, maydoni, mahallasida Konstitutsiyaning yaratilishi, takomillashtirish bosqichlarini ifoda etadigan "Konstitutsiya tarixi" burchagi va fotoko'rgazmalari tashkil etilishini;

Konstitutsiyani o'rgatish bo'yicha zamonaviy metodika asosida tayyorlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va maxsus adabiyotlar ko'rgazmalari o'tkazilishini;

konstitutsiyaviy huquqlar bo'yicha sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar burchaklarini tashkil etish va ularga ko'rgazmali materiallarni joylashtirilishini hamda targ'ibot va ko'rgazmali bannerlar bilan bezatilishini;

Konstitutsiyaga oid turli ko'ngilochar tadbirlar, chellenjlar tashkil etib, fuqarolarning Konstitutsiyaga oid bilimlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha viktorina loyihasini amalga oshirib, g'olib fuqarolarni Konstitutsiya kitobi, Konstitutsiya ramzi tushirilgan mahsulotlar bilan taqdirlash choralari ko'rilishini ta'minlasin.

22. Viloyat Adliya boshqarmasi (**S.Sattarov**), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (**D.Ismoilov**) barcha boshqarma va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda:

barcha hududlarda aholining keng qatlamlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, ochiq

muloqot va suhbatlar, badiiy kechalar, festivallar, sayillar, madaniyat va sport tadbirlarini samarali o‘tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san’at arboblari, keksa va yosh avlod vakillari, taniqli sportchilarni jalb etgan holda bayram tadbirlarini amalda tashkil etilishini ta’minlasin.

Shuningdek, Ichki ishlar organlarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni 16 yoshga to‘ladigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga ID kartani topshirish jarayonlarini bayramona tashkil etsin.

23. Mazkur yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

**Yig‘ilish bayonini
rasmiylashtirdi**



E.Jonibekov